

Salohiddinova Lobar Qahramon qizi
Buxoro davlat universiteti
boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi

“ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI” DARS LIKLARIDA ADABIY ERTAK

Annotatsiya. “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darslarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari “badiiy asar”, “janr”, “qofiya”, “vazn” kabi tushunchalar haqida boshlang‘ich bilimga ega bo‘lishi, she‘riy asar tahlilining ilk ko‘nikmasini o‘zida hosil qilishi zarur. Shunda 5-sinfga o‘tganda badiiy asar tahlili jarayonida o‘zaro uzviylik mavjud bo‘ladi. Maqolada shu haqda fikr boradi.

Kalit so‘zlar: Ona tili va o‘qish savodxonligi, folklor, janr, xalq ertagi, she‘riy ertak, nasriy ertak, hikoya, asar, qofiya, vazn.

ЛИТЕРАТУРНАЯ СКАЗКА В УЧЕБНИКАХ “РОДНОЙ ЯЗЫК И ЧИТАТЕЛЬСКАЯ ГРАМОТНОСТЬ”

Аннотация. На занятиях «Родной язык и грамотность чтения» учащиеся начальных классов должны иметь базовые знания о таких понятиях, как «художественное произведение», «жанр», «рифма», «вес», поэтическое произведение, что необходимо для формирования первого навыка анализа работы. Тогда, при переходе в 5 класс, появится связность в процессе анализа художественного произведения. В статье об этом говорится.

Ключевые слова: Родной язык и грамотность чтения, фольклор, жанр, народная сказка, поэтическая сказка, прозаическая сказка, рассказ, произведение, рифма, вес.

A LITERARY FAIRY TALE IN TEXTBOOKS “NATIVE LANGUAGE AND READER'S LITERACY”

Annotation. In the classes of "Mother language and reading literacy" elementary school students should have basic knowledge about concepts such as "artwork", "genre", "rhyme", "weight", poetic it is necessary to form the first skill of analysis of the work. Then, when moving to the 5th grade, there will be coherence in the process of analysis of an artistic work. The article discusses this.

Key words: Mother tongue and reading literacy, folklore, genre, folk tale, poetic tale, prose tale, story, work, rhyme, weight.

“Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsliklarida xalq ertaklari bilan bir qatorda adabiy ertaklar ham berilgan. Ammo muallifi aniq bo‘lgan, ertak janri talablariga javob beradigan bu adabiy ertaklarda asarlar janri berilmagan. Buning ustiga ifoda usuli ertakka emas, hikoyaga mos bo‘lgan asar ertak deb belgilangan: “Baland tog‘ etagida paydo bo‘lgan buloqlardan yonma-yon ikki irmoq oqib chiqdi. Irmoqlarning biri katta, ikkinchisi esa kichikroq edi. Katta irmoq kuchliroq edi”[4.55].

Ayrim o‘rinlarda asarda g‘ayrioddiy voqealar tasvir etilmasa-da, ifoda usuli ertakka mos holda beriladi, natijada asar adabiy ertakka monand bo‘lib qoladi. Masalan, “Ona tili va o‘qish savodxonligi”3-sinf uchun darsligi (1-qism)da “Vitaminjon” asari bor. Umida Sadatova qalamiga mansub bu asar bolalar uchun qiziqarlilik kasb etishi inobatga olinib, ilmiy asosga ega voqelik adabiy ertak usulida yaratilgan. Bizningcha, bu o‘zini oqlaydimi, oqlamaydimi deya o‘ylab ko‘rilishi zarur.

Adabiy ertak bo'lishi uchun o'tgan zamon fe'lining -bdi / -ibdi shakli qo'llanishi lozim. Ayni damda, mohiyatida xayoliy uydirmalar bo'lishi kerak. Yuqoridagi asar ertak deb belgilansa, o'quvchi xalq ertagi bilan muallifi aniq ertakni farqlamay qoladi. Shu sabab darsliklardagi asarlar janrini to'g'ri belgilash va bu janrlarni nazariy asoslashni soddalikdan murakkablikka tomon borish orqali keltirish mumkin. Darslik tuzuvchilarining bu boradagi tutumi ham o'ziga xos. Ular folklor namunasini xalq ertagi, muallifi bor ertakni ertak deb belgilashgan. "Inson nima uchun hammadaan kuchli?" ertagi xalq ertagi deb berilgan. Aslida shunday xalq ertagi bormi, manbasi aniqmi? Ammo aynan shu darslikda "Ertak" sarlavhasi ostida muallifsiz asar berilgan (103-104-bet). Demak, darslik tuzuvchilar tutumiga ko'ra folklor namunasi xalq ertagi deb berilishi lozim edi. Xuddi shu darslikda ertak usulida yozilgan Xudoyberdi To'xtaboyev qalamiga mansub "Mehribon aka-ukalar" asari janri hikoya deb belgilangan. Aslida yangi darsliklarni tuzuvchilar bu masalani jiddiy o'ylashgan. Ularning yondashuvini qo'llash mumkin. Darsliklarda muallifi bor ertaklar "ertak", folklor namunasi "o'zbek xalq ertagi, tojik xalq ertagi" tarzida berilgan. Ammo janrlarni berishda tizimlilik, bir xillik yo'q. Bizningcha, folklor namunalarini ertak yoki o'zbek xalq ertagi tarzida berish; muallifi mavjud adabiy ertaklarni she'riy ertak, ertak doston, nasriy ertak, ertak drama holatida berish mumkin. Chunki o'zbek bolalar adabiyotida epik, dramatik, liro-epik turga mansub adabiy ertaklar bor. Bu holatlar, bizningcha, atroflicha o'ylanishi, oydinlashtirilishi zarur.

Umumiy ta'lim maktablarining 1-sinfi uchun "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligida berilgan ertakni tahlilga tortish orqali adabiy ertak badiiyatiga e'tibor qaratsak.

Shundoq o'rmon chetida, o'tloq bo'yida

Chiroyli bir savatcha yotar qarovsiz.

Bandi pishiq va nafis, tuxumi ham bor,

Bunaqasin, ehtimol, ko'rmagansiz siz [1.14].

Avvalo, bu asarni she'riy ertak deb bergan ma'qul. Asarlar janrini belgilash insonlarning familiyasini aytganimiz kabi zarur. Abdurahmon Akbar qalamiga mansub bu she'riy ertak barmoq she'riy tizimining soddazaznida yozilgan. Ammo soddazaznning 12 bo'g'inli ko'rinishida yozilgani uchun 1-sinf o'quvchisiga sal og'irlik qiladi. Agar 9 hijoli ko'rinishdagi she'riy ertak bo'lsa, ayni muddao. Asarda voqealar ketma-ketligi, rivoji bolalar tabiatiga mos. Ammo ertak janri talabiga ko'ra fe'llar o'tgan zamonning -bdi / -ibdi shaklida kelishi zarur edi. Sirlilik, xayoliy uydirmalar ham uchramagan bu she'riy ertakni hayvonlar haqidagi ertak deb olaylik. Shunda ham asar janri belgilari sust ekanini ta'kidlash lozim. Asarda tuxumidan chiqolmayotgan jo'jani qutqarish uchun turli jonivorlar yordamga keladi.

Ana tashvish, ana g'am, ana mashmasha, a

Chiqa olmas jo'javoy tuxumni yorib. b

Uchib kelib yoniga shu chog' **kapalak** d

Yordam bermoqchi bo'ldi, unnadi horib. a

She'riy ertak 4 misrali bandlardan tashkil topgan. Aksariyat hollarda toq misralar ochiq qolib, juft misralar qofiyalangan. Agar qofiyasiz misralar bo'lmaganida o'quvchining zavqi oshgan, she'riy ertakni yodlashi osonroq, asarning badiiyati balandroq bo'lgan bo'lardi.

O'qituvchi asar qahramonlarini quyidagi tasvir ko'magida sanashi mumkin:

jo'ja

kapalak

chuvalchang

chumchuq

chumoli

E'tibor qilsangiz, qahramonlar nomining asosiysi "ch" harfi bilan boshlangan. Bunday asarni o'qitish jarayonida shu holat inobatga olinib, ona tiliga oid topshiriq berish mumkin. Masalan, "She'riy ertak"dagi "ch" bilan boshlanuvchi so'zlarni ko'chiring va ulardan qaysi biri asar

- 110 qahramonlari ekanini aniqlang". Jo'jaga kapalak, chuvalchang, hatto chumchuq ham yordam bera olmaydi. Ammo ularning barchasidan kichik bo'lgan chumoli jabr ko'rgan qahramonni qitqarib oladi. Shoir chumoli ziyrak ekanini ta'kidlar ekan, u do'stlari bilan harakat qilganini, ularning ahilligini ko'rsatish orqali o'quvchini jamoa bo'lib uyushishga chorlaydi. O'qituvchi ham shunga e'tibor qaratishi lozim:

Picha reja tuzdi-da, o'rmonga qaytdi,
Yetib keldi zum o'tmay do'stlarin boshlab.
Birgalashib jo'jani tortib oldilar:
Ahillikda, birlikda, haqrost, ko'pdir gap[1.15].

O'quvchi she'riy nutq bilan so'zlashuv nutqini farqlashi, she'riy asarni sekin-asta tahlil qilishga o'rganishi uchun quyidagicha topshiriq berilgan, bu yangi darslikning yutuqlaridan biridir:

O'rmon chetidagi o'tloqda bir savatcha
turardi. Uning ichida tuxum bor edi.

Shundoq o'rmon chetida, o'tloq bo'yida
Chiroyli bir savatcha yotar qarovsiz.
Bandi pishiq va nafis, tuxumi ham bor,
Bunaqasin, ehtimol, ko'rmagansiz siz.

"Quyidagi ta'riflarning qay biri yashil, qay biri sariq rangdagi gaplarga mos ekanini ayting", – deyilgan va quyida topshiriqning to'g'ri javobi bilan birga noto'g'ri javob keltirilgan. Shu o'rinda bir jihatni aytish lozimki, darslikda ranglar yashil va sariq deyilsa-da, yashilning juda bo'r ko'rinishi, sariqning o'rniga boshqacha rang berilgan. Keying nashrda bunga e'tibor qilinmasa, o'quvchida rang borasida noo'rin tasavvur hosil bo'lishi mumkin.

Bir-birimiz bilan gaplashganda ishlatiladigan gaplarga o'xshaydi. Har bir qatori bir xil ohangda o'qiladi. Qatorlar oxirida aytilishi o'xshash so'zlar ishlatilgan. Bu topshiriqning berilishi ma'qul. Ana shu o'rinda "qoida" belgisi yoki so'zi ostida qofiyaning ilk ta'rifini berish mumkin: "Qatorlar oxirida keladigan, aytilishi o'xshash bo'lgan so'zlar qofiya deyiladi". Keyingi gal ohangdosh so'z deb emas, "qofiya" atamasini qo'llab, so'zlarni toptirish mumkin va qofiyaning qoidasini sinfdan sinfga o'tib borgan sayin mukammallashtirib borish samara beradi. Biz ta'rifni darslikka tayanib, yuzaga keltirdik. Topshiriqdagi ta'rif qancha nazariy asosli, amaliy jihatdan qulay bo'lsa, ta'rif ham shu darajada to'g'ri bo'ladi. Bu holat boshlang'ich sinf o'quvchisini she'riy asar tahliliga o'rgatib boradi. Darslikda qofiya ta'rif bor, ammo ta'rif 46-betda quyidagicha berilgan: "She'ning qatorlarida bo'g'inlar soni bir xil bo'ladi. She'rdagi qatorlar oxirida ohangdosh so'zlarning kelishiga qofiya deyiladi". Bizningcha, qofiya ta'rifini 16-betda, biz aytgan o'rinda berilsa, amaliy va nazariy mutanosiblik yuzaga kelardi hamda 46-betdagi ta'rifning "She'ning qatorlarida bo'g'inlar soni bir xil bo'ladi" qismi qolsa, barmoq she'riy tizimi haqidagi ilk ta'rif berilgan bo'ladi. O'quvchi she'riy asar vaznini va qofiyasini topishni sekin-asta o'rganib boradi.

"Ona tili va o'qish savodxonligi"	Adabiy ertak nomi	Muallifi	Janri	Beti
1-sinf uchun darslik (2-qism)	"Jonli savatcha"	Abdurahmon Akbar	She'riy ertak	15-bet.
2-sinf uchun darslik (1-qism)	"Chumolining jasorati"	Sa'dullo Qurinov	She'riy ertak	7-8-betlar
2-sinf uchun darslik (2-qism)	"Donishmand soat"	Shahlo Abduqayumova. "Zamonaviy ertaklar" kitobidan	Nasriy ertak	15-17-betlar
2-sinf uchun darslik (2-qism)	Jajji nasriy adabiy ertak, nomsiz	Dilshod Rajab	Nasriy adabiy ertak	73-bet

3-sinf uchun darslik (1-qism)	“Vatan”	Xudoyberdi To‘xtaboyev	Nasriy ertak	10-13-betlar
3-sinf uchun darslik (1-qism)	“Qo‘rqoq bug‘u”	Sh.Abdullayev	Nasriy ertak	34-bet
3-sinf uchun darslik (1-qism)	“Ikki to‘lqin”	Donald Bisset Ingliz tilidan Mirjalol Madvaliyev tarjimai	Nasriy ertak	46-49-betlar
3-sinf uchun darslik (1-qism)	“Ikki irmoq” (Ertak)	Habib Po‘latov	Nasriy ertak	55-59-betlar
3-sinf uchun darslik (2-qism)	“O‘g‘rining qismati”	Dilshod Rajab	She‘riy ertak	118-120-betlar

Bizningcha, darsliklarda folklarga daxldor ertaklarni xalq ertaklari (“o‘zbek xalq ertagi” tarzida berish ham ma’qul), muallifi bor ertakni, ya’ni yozma adabiyot namunasini “nasriy ertak”, “she’riy ertak” yoki “ertak qissadan”, “ertak dostonidan” holatida berish o‘rinli. Bu tarzda yondashuv boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida quyidagilarni hosil qiladi:

1. Sher’y asar bilan nasriy asarni farqlashga o‘rgana boshlaydi.
2. She’riy tizimga daxldor “vazn” tushunchasini anglay boshlaydi.
3. She’r unsurlaridan biri bo‘lgan qofiyani topishga o‘rganadi.
4. Xalq ertagi va muallifi bor ertakni farqlay boshlaydi.
5. Muallifi bor ertaklarning turli turlarga daxldor ko‘rinishini farqlab borar ekan, adabiy tur tushunchasiga poydevor qo‘yiladi. Natijada boshlang‘ich sinf o‘quvchisi asar tahlilining dastlabki mashqlarini amalga oshiradi va yuqori sinf bo‘lganda asar tahlilida qiynalib qolmaydi. Bu borada o‘zaro bog‘lanish yuzaga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ona tili va o‘qish savodxonligi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik. 1-qism. Tuzuvchilar: Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., Shokir Tursun. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 104 b.
2. Ona tili va o‘qish savodxonligi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik. 1-qism. Tuzuvchilar: Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., Shokir Tursun. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 120 b.
3. Ona tili va o‘qish savodxonligi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik. 2-qism. Tuzuvchilar: Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., Shokir Tursun. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 120 b.
4. Ona tili va o‘qish savodxonligi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. 1-qism. Tuzuvchilar: Tuzuvchilar: Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., Shokir Tursun, Ro‘zmetova Z. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 144 b.